ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

YOSHLARNI TA’LIM VA KASB-HUNAR BILAN TA’MINLASH TIZIMIDA MAKTAB, KOLLEJ VA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING ROLI

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
Email: axrorxudoyberdiyev19@gmail.com
Rahmonqulova Oksana Aliqulovna
Qarshi davlat universiteti. Dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida, xususan Qashqadaryo viloyatida yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda umumta’lim, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning yoshlar bandligiga ta’siri hamda tizim samaradorligi o‘rganilgan. Statistik va tizimli tahlil usullari yordamida ta’lim bilan qamrov darajalari, oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari hamda hududiy xususiyatlar baholangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, kasb tanlash jarayonini takomillashtirish va bitiruvchilarning bandligini oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, dual ta’lim va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimlarini rivojlantirish yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini ta’minlashda muhim omil sifatida baholandi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, yoshlar bandligi, dual ta’lim, ta’lim integratsiyasi, Qashqadaryo viloyati

Аннотация. В данной статье проведён комплексный анализ системы обеспечения молодежи образованием и профессиональной подготовкой в Республике Узбекистан, в частности в Кашкадарьинской области. Рассмотрены взаимосвязи между общим средним, профессиональным и высшим образованием, а также их влияние на занятость молодежи. С использованием статистических и системных методов анализа оценены показатели охвата образованием, доступ к высшему образованию и региональные особенности развития образовательной системы. Результаты исследования показали, что, несмотря на положительную динамику развития системы образования, остаются актуальными проблемы обеспечения преемственности между уровнями образования, профессиональной ориентации молодежи и их трудоустройства. Особое внимание уделено внедрению дуального образования и практико-ориентированного обучения как эффективных инструментов адаптации выпускников к требованиям рынка труда.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: система образования, профессиональное образование, высшее образование, занятость молодежи, дуальное образование, интеграция образования, Кашкадарьинская область

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the system of youth education and vocational training in the Republic of Uzbekistan, with a particular focus on the Kashkadarya region. The study examines the interconnection between general secondary, vocational, and higher education institutions, as well as their impact on youth employment. Using statistical and systematic analysis methods, key indicators such as education coverage rates, access to higher education, and regional characteristics were evaluated. The findings indicate that despite significant positive changes in the education system, challenges remain in ensuring continuity between different levels of education, improving career guidance, and increasing graduate employment rates. Special attention is given to the role of dual education and practice-oriented learning in enhancing the adaptability of young people to labor market demands.

Keywords: education system, vocational education, higher education, youth employment, dual education, education integration, Kashkadarya region

KIRISH.

Ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik omil hisoblanadi. U inson kapitalini shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarni avloddan-avlodga uzatish hamda shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining uzluksizligi, innovatsion yondashuvlar asosida takomillashuvi va mehnat bozori talablariga moslashuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [7]. Xususan, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimining integratsiyasi yoshlarning bandligini ta’minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, umumta’lim, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’lim muassasalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat yuritadi [2]. Kasb-hunar ta’limi muassasalari asosan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, oliy ta’lim muassasalari nazariy bilimlar, ilmiy tadqiqotlar va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tizimlar o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlash, ya’ni nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [14].

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, dual ta’lim elementlarini joriy

ISSN 3030-3907

etish, hamda mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq, amaliyotda ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzilishlar, kasb tanlashdagi muammolar va bitiruvchilarning bandligi bilan bog‘liq masalalar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimida maktab, kasb-hunar muassasalari va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘rni hamda ularning o‘zaro hamkorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega [5]. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalar kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ta’lim tizimining rivojlanishi va yoshlarni kasb-hunar bilan ta’minlash masalalari ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, L.I. Berezovska, G.D. Kondratska, A.A. Zarytska, K.S. Volkova va T.M. Matsevko o‘z tadqiqotlarida kasb-hunar va oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim shakllarining muhimligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, ta’lim tizimi zamon talablariga mos ravishda takomillashib borishi, uzluksiz ta’lim tamoyili asosida tashkil etilishi hamda shaxsning kasbiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashi zarur.

Kasb-hunar ta’limi muassasalarining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati M.P. Sebola tomonidan chuqur tahlil qilingan. Muallif texnik va kasb-hunar kollejlari asosan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligini, biroq ularning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni bahsli ekanligini qayd etadi. Shuningdek, u kasb-hunar ta’limi bilan oliy ta’lim o‘rtasidagi farqlarni ochib berib, ushbu tizimlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni S. Whitehouse tomonidan avlodlar o‘rtasida bilim va tajriba almashinuvi nuqtai nazaridan yoritilgan. G. Bracey esa ta’lim jarayonida natijadan ko‘ra sifatli bilim olish jarayonining ustuvorligini asoslab beradi. J. Bamburg ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar samaradorligi ko‘proq tashkiliy va metodik yondashuvlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, L. Tkachenko kasb-hunar ta’limi tizimida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash darajasining pastligi mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar yetishmasligiga olib kelishini ta’kidlaydi. V. Ogneviuk esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi aholining ta’lim darajasi bilan bevosita bog‘liqligini ilmiy asoslab beradi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimi samaradorligi ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda mehnat bozori talablariga moslashuv

ISSN 3030-3907

darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va ta’lim tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasida, xususan Qashqadaryo viloyatida yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimining asosiy tendensiyalarini aniqlash hamda ularning hududiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish maqsadida tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Shuningdek, milliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning yoshlar bandligiga ta’siri tahlil qilindi.

Ilmiy abstraksiya va tizimli yondashuv usullari yordamida Qashqadaryo viloyatida ta’lim tizimining faoliyati, uning rivojlanish muammolari, sabab va oqibatlari aniqlanib, umumlashtirildi. Tadqiqotda hududdagi umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish xususiyatlari o‘rganildi.

Tizimli yondashuv va statistik usullar asosida viloyatda ta’lim bilan qamrov darajasi, yoshlarning kasb-hunar ta’limiga jalb etilishi hamda oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi [11]. Shuningdek, ta’lim tizimining moliyalashtirilishi, davlat va xususiy sektor ishtiroki hamda ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rganildi [1].

Axborotlarni tahlil qilish va sintez qilish usullari orqali milliy va xalqaro tajribalar solishtirilib, ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari belgilandi [9]. Prognozlash usullari yordamida esa yoshlarni kasb-hunar bilan ta’minlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari aniqlashtirildi.

Tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyatidagi ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim shakllarini, jumladan, dual ta’lim, masofaviy ta’lim va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimlarini joriy etish amaliyoti ham ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarni kasb-hunar bilan ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bilimlarni shakllantirish va uzatish tizimi sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilar soni 2024-yil holatiga ko‘ra 6,8 million nafardan oshib, Qashqadaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 680 ming nafardan ortiqni tashkil etmoqda. Bu esa hududda yoshlarning ta’lim bilan qamrab olinishi yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ta’lim tizimining asosiy ko‘rsatkichlarini tizimli tahlil qilish maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi.


ISSN 3030-3907

1-jadval.

Ta’lim tizimi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Milliy daraja	Qashqadaryo	Holat
Umumta’lim maktab o‘quvchilari	6,800,000+	680,000+	Yuqori
Maktabgacha ta’lim qamrovi	70–76%	–	O‘smoqda
Boshlang‘ich ta’lim qamrovi	90%+	90%+	Yuqori
Oliy ta’lim qamrovi (2014)	~7%	–	Past
Oliy ta’lim qamrovi (2024)	45–47%	–	Keskin o‘sdi
Oliy ta’lim talabalari soni	1,400,000+	–	Yuqori
Maktab bitiruvchilari (2025)	–	40,000+	Barqaror

Maktabgacha ta’lim tizimida ham ijobiy o‘sish kuzatilib, 2024-yilda qamrov darajasi 70–76 foiz oralig‘iga yetdi. Boshlang‘ich ta’lim bilan qamrov esa 90 foizdan yuqori darajada saqlanib qolmoqda.




1-rasm. Ta’lim bosqichlari bo‘yicha qamrov darajalarining taqqoslama ko‘rsatkichlari

Bu ko‘rsatkichlar inson kapitalini shakllantirishning dastlabki bosqichlari mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

Oliy ta’lim tizimida keskin o‘sish kuzatilmoqda. Agar 2014-yilda oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 7 foizga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yiliga kelib bu ko‘rsatkich 45–47 foizgacha yetdi (2-rasm).

ISSN 3030-3907



2-rasm. 2014–2024 yillarda oliy ta’lim bilan qamrov darajasining o‘sish dinamikasi

Shu bilan birga, talabalar soni ham bir necha barobarga oshib, 1,4 million nafardan ortiqni tashkil etdi. Bu holat yoshlarning oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganini va davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlarning kengayganini ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har yili o‘rta ta’limni bitirayotgan yoshlar soni yuqori bo‘lib, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 40 ming nafardan oshgan. Biroq, ushbu bitiruvchilarning barchasi oliy ta’lim bilan qamrab olinmayotgani kasb-hunar ta’limi muassasalarining ahamiyatini oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasb-hunar maktablari va texnikumlarning roli yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti quyidagi diagrammada aks ettirilgan.



3-rasm. Ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yoshlarning taqsimoti

ISSN 3030-3907

Yangi ta’lim shakllarining joriy etilishi ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Masofaviy va aralash ta’lim shakllari yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, o‘qish bilan bir qatorda ishlash, amaliy tajriba orttirish hamda mustaqil ta’lim olish imkonini bermoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshirdi.

Ta’lim tizimida dual ta’lim modelining joriy etilishi ham muhim natijalardan biri hisoblanadi. Mazkur tizim nazariy bilimlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi [15]. Qashqadaryo viloyatida ham ayrim kasb-hunar ta’limi muassasalarida dual ta’lim elementlari joriy etilib, bu yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimda muayyan muammolar ham saqlanib qolmoqda [3]. Jumladan, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, kasb tanlashdagi muammolar hamda bitiruvchilarning bandligi bilan bog‘liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limga qamrov oshib borayotgan bo‘lsa-da, barcha bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash darajasi hali ham yetarli emas.

XULOSA.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida, xususan Qashqadaryo viloyatida yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimi izchil rivojlanib bormoqda va uning asosiy ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘sish kuzatilmoqda. Umumta’lim, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bilan qamrov darajasining yuqoriligi inson kapitalini shakllantirishning mustahkam asoslari yaratilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida qamrov darajasining keskin oshishi yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganini va ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ko‘rsatadi [12].

Biroq, olib borilgan tadqiqotlar ta’lim tizimida ayrim muammolar ham mavjudligini ko‘rsatdi, jumladan ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikning yetarli darajada emasligi, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar hamda bitiruvchilarning bandligi bilan bog‘liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, ta’lim tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish, kasb-hunar ta’limining rolini oshirish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Becker, G. S. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis with special reference to education (3rd ed.). University of Chicago Press.

ISSN 3030-3907

2. OECD. (2023). Education at a glance 2023: OECD indicators. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/eag-2023-en
3. World Bank. (2022). World development report 2022: Finance for an equitable recovery. World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1730-4
4. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO Publishing.
5. European Commission. (2020). Vocational education and training in Europe 1995–2035: Scenarios for European VET. Publications Office of the European Union.
6. Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to investment in education: A decennial review of the global literature. Education Economics, 26(5), 445–458. https://doi.org/10.1080/09645292.2018.1484426
7. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2020). The knowledge capital of nations: Education and the economics of growth. MIT Press.
8. UNESCO Institute for Statistics. (2022). Global education monitoring report 2022. UNESCO.
9. OECD. (2021). Skills outlook 2021: Learning for life. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/0ae365b4-en
10. European Training Foundation. (2022). Skills development and youth employment in transition economies. ETF Publishing.
11. Asian Development Bank. (2021). Technical and vocational education and training in Asia and the Pacific. ADB Publications.
12. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). Annual report on higher education development. Tashkent.
13. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). Education statistics yearbook. Tashkent.
14. World Bank. (2020). Uzbekistan education sector analysis. World Bank Group.
15. UNESCO. (2020). Global education monitoring report 2020: Inclusion and education. UNESCO Publishing.

ISSN 3030-3907